



“TASDIQLAYMAN”

**Nurota tuman veterinariya va
chorvachilikni rivojlantirish
bo‘limi boshlig‘i**

_____B.Bobomurodov

“___” iyun 2025 yil

**Nurota tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limida
o‘tkazilgan yig‘ilishi**

B A Y O N I 38-05/24

18.06.2025 yil

Nurota tuman

Raislik qildi:

B.Bobomurodov- Nurota tuman Veterinariya va
chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i

Qatnashdilar:

Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish
bo‘limi bosh mutaxassislari, tegishli mutaxassislari

K U N T A R T I B I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-sonli qarorining ijrosini ta‘minlanishi to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-sonli qarorining ijrosi to‘g‘risida..

(B.Bobomurodov, E.Otaqulov, N.Nuriddinov, R.Aslonov, N.Ro‘ziyev, O‘.Karimov, Sh.Nuriddinov, Y.Saidova)

Kun tartibidagi madalalar bo‘yicha yig‘ilish raisi -Nurota tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i B.Bobomurodov ochib kun tartibiga qo‘yilgan masalalar bilan tanishtirib o‘tdi.

Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi Koorupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ma‘sul hodim N.Ro‘ziyev Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan va kelgisida amalga oshiriladigan rejalar haqidagi hisoboti tinglandi.

Nurota tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan xodimlar o‘rtasida korrupsion huquqbuzarliklarni oldini olish va “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish uchun doimiy ravishda umumprofilaktik tadbirlar doirasida me‘yoriy hujjatlar bilan xodimlar tanishtirib borilmoqda. **Jumladan,**

O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 2017 -yil 3-yanvardagi O‘RQ-419 sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo’lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risidagi PF-6257-sonli Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risidagi PQ-5177-sonli, 2022 yil 12 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-81-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko’maklashgan shaxslarni rag’batlantirish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 829-son qarori tanishtirib borilmoqda.

Nurota tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo’lim xodimlari o’rtasida manfaatlar to’qnashuvining oldini olish maqsadida yangi ishga kirayotgan barcha xodimlardan shaxsiy ma’lumotlar (obektivka) olinib, Nomzodni ishga qabul qilish yuzasidan sinov natijalari bo’yicha xulosa berilib, ishga qabul qilinayotganida manfaatlar to’qnashuvi mavjudligi mavjud emasligi to’g’risidagi arizalar olinib kelinmoqda.

Bo’limda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash maqsadida byudjet mablag’larining sarflanishi davlat xaridlari bo’yicha ma’lumotlarni O’zbekiston Respublikasining **xarid.uz saytiga** joylashtirib borilmoqda.

Shu bilan birga O’zbekiston Respublikasi tegishli byudjet mablag’larini noqonuniy sarflanishini oldini olish maqsadida bo’lim tomonidan amalga oshirilayotgan xaridlar tenderlar, auksionga qo’yish jarayonlari shahar Iqtisodiyot va moliya bo’limi bilan hamkorlikda tekshirib borilishi, kontragentlarni Nizomda ko’rsatilgan ilovalar orqali Respublikadagi tegishli saytlar orqali tekshirish borasida ishlar tashkil etilmoqda.

Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarda korrupsion holatlar bo’yicha murojaat shikoyat va arizalar kelib tushmagan.

Joriy yilning 20avgust kuni 4-sonli yig’ilish bayoni bilan barcha xodim va mutaxassislari ishtirokida ko’rib chiqilib, O’zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi 2017-yil 3-yanvardagi O’RQ-419 sonli qonuni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo’lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risidagi PF-6257-sonli Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risidagi PQ-5177-sonli, 2022 yil 12 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-81-son qarorlari mazmun va mohiyati tushuntirildi.

Bo’limning bosh mutaxassislari va VSE laboratoriyasiga korrupsion holatlarning oldini olish maqsadida rangli eslatmalar tarqatilgan.

Yuqoridagi qarorlarning mazmuni va korrupsion holatlarning oldini olish maqsadida bo’limda kelgusida 4 marotaba davra suhbatlari, 2 marotaba OAV lariga

va 3 maratoba mahalliy gazetalarga chiqishlar qilinishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari har bir bo'lim apparat yig'ilishlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish va oldini olish maqsadida tushuntirish ishlari olib borilishi rejalashtirilgan.

Shundan so'ng, **B.Bobomurodov** bugungi semenarimizda Korrupsiyaga qarshi kurashish hozirgi kunda mamlakatimizda bu illatga qarshi bir qator tadbirlar o'tkazilmoqda o'zingiz eshitib guvoh bo'lganingizdek sohamizda bunday xatoga yo'l qo'ymasligimiz shart. Qonunlar bilan tanishdingiz bu korrupsiyaga yo'l qo'ygan u hoh yuridik hoh jismoniy shaxs bo'lsin qonun oldida javob berishi belgilab qo'yilganligini, Nafaqat siz balki kelajak avvlodlarimizga ham bunday xatoga yo'l qo'ymasligi haqida uqturib borishimiz zarur ekanligini ta'kidladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda yig'ilish,

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Korrupsiyaga qarshi ko'rashish bo'yicha ma'sul xodim N.Ro'ziyevga:

2025 yil davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-sonli, 2022 yil 12 yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-sonli qarorining ijrosi yuzasidan tizim tashkilotlarida amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligini o'rganish va seminar-treninglar o'tkazish grafigini ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash topshirilsin.

Tashkilotda 2025 yil davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-sonli, 2022 yil 12 yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-sonli qarorining ijrosi boyicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan hisobotga tayyorgarlik ko'rsin va tasdiqlangan grafik asosida seminarlar tashkillashtirilsin;

3. Ushbu bayon mazmun mohiyati barcha ishchi-xodimlar e'tiboriga yetkazilsin.

4. Ushbu yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Bayonni rasmiylashtirdi

Y.Saidova

